


1000 0




"O'ZBEKISTON"

ISBN 978-9943-01-379-7



9789943013797




Abayd Zokomiy

DILKUSHO HIKOYATLAR



Handwritten signature or name, possibly "M. Abdurrahman" or similar, written in a cursive style.



Abdul Zakaria

RIKUSIHO
RIKUYIAR

Qazvinlik taniqli abib, tanqidiy nazarga ega hajvchi Ubayd Zokoniy satirik asarlari bilan Markaziy Osiyo xalqlari orasida mashhur bo'lgan. Ushbu to'plamga hajvchining latifalari, «O'n fasl risolasi» hamda «Yuz o'git» risolasidan namunalar kiritilgan.

Keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

To'plovchi va tarjimon

Kibriyo Qahhorova

HAJVCHI SHOIR

Ubaydulloh 1270 (yoki 1280) yilda Qazvin yaqinida, Zokon degan joyda sobiq vazir oilasida dunyoga keladi. U ibtidoiy ilmni Zokonda oladi, so'ng bilim olishni o'sha davr ilmiy markazlaridan bo'lgan Bag'dod shahrida davom ettiradi. O'qishni tugatib kelgach, Ubayd davlat idoralarida amaldor bo'lib ishlay boshlaydi. O'zining yozishiga ko'ra, tinch va to'q hayot kechinshiga yetarli sharoit va mablag' mavjud edi. Ammo qandaydir sabablarga ko'ra (tanqidiy nazari, hajvchiligi uchun bo'lsa ham ajab emas), ishdan bo'shatiladi va asosiy mashg'uloti adiblik bo'lib qoladi.

U hajv va parodiyaning turli yo'llarini ijod etdi, xalqdan olib ishlov berdi, uning gumanistik yo'nalishini mus-tahkamladi va yuksak cho'qqilarga ko'tara bildi.

Faqiru haqirikda kun kechirsa-da, endi ularning minnatli in'om-ehsonlaridan yuz o'giran edi. Saroy hayotidan yuz o'girib ketish Zokoniyga oddiy, xalq orasida bo'lish, mardum hayotiga chuqurroq kirib borish imkonini berdi. Bu esa davr hukmdorlariga xalq ko'zi bilan boqishga, ular zulmini xalq bilan birga azmoyish etishga olib keladi va shoir ijodining satirik yo'nalishini belgilab beradi.

Zokoniy umning oxirgi yillari haqida ma'lumotlar yo'q, ammo shoirning Isfahonga bag'ishlangan bir qasidasi u 1367 yilda hayot bo'lganligidan dalolat beradi.

O'zbek kitobxonlari bu shirinsuxan shoir, mohir hajvchi asarlari bilan o'z ona tillarida bir oz tanishlar. Uning asarlariga faqat ermak, hazil-mazax deb qaramaslik lozim, zero shoirning o'zi bundan ogohlantirib:

ISBN 978-9943-01-379-7

© G. Gulom nomidagi Adabiyot
va san'at nashriyoti, 1983
© «O'zbekiston» NMIU, 2009

Bu mazoxat na guftam in guftor
Hazl bigzoru jid az u bardor,

ya'ni: bu gaplarni faqat mazax uchun aytmadim, hazilimi
qo'ygini jiddiysini ol, degan edi.

Sh. Shomuxamedov,

filologiya fanlari doktori, professor

Bir kishi xudolik da'vo qilgan ekan, uni xalifa huzuriga
olib borishibdi. Xalifa unga:

— Bultur birovi kelib, men payg'ambar bo'laman
deganida, uni o'ldirishgan edi, — debdi.

— Juda yaxshi qilishibdi, — debdi haligi odam, — uni
men yubormagan edim.

Bir kishi mavlono Azudiddindan:

— Xalifalar zamonida odamlar orasida xudolik va
payg'ambarlik da'vosini qiluvchilar ko'p bo'lar edi. Nima
uchun endi undaylar topilmaydi? — deb so'rabdi.

— Hozirgi kishilar, — deb javob beribdi u, — zulm va
ochlikdan shunday ahvolga tushib qoldilarkim, na xudo
eslariga keladi va na payg'ambar.

Bir sodda kishi odamlarning qo'yini o'g'irlab, go'shtini
xudoyi qilarkan.

— Nega bunday qilasan? — deb so'rashsa, shunday
javob beribdi:

— Ey birodarlar, xudoyining savobi qo'y o'g'irlaga-
ningning gunohini qoplaydi, o'rtada yog' bilan charvi yonga
qoladi, nahotki shunga tushunmasalaring!

Bir sodda kishi mashinachiga shogird tushibdi. Bir kuni usta bir kosada asal keltirib do'konga qo'yibdiyu o'zi bir ish bilan chiqib keta turib, shogirdiga:

— Bu kosadagi narsa zahar, tag'in yeb qo'ymagin, o'lib qolasan-a, — debdi.

— Yo'g'e, men nima qilaman uni, — debdi shogird.

Usta ketgandan keyin shogird bola do'kondagi laxtaklarni sotib non olibdiyu o'sha non bilan asalni bir to'yganim — chala boy bo'lganim, deb paqqos tushiribdi.

Usta qaytib kelib laxtaklarni so'rasa, shogird bola shunday debdi:

— Jon usta, meni umang, rostini aytaman. Siz ketgach, o'g'ri meni g'afatda qoldirib, laxtaklarni o'g'inlab ketibdi. Kelsangiz albatta meni urarsiz deb qo'rqib, bot, o'lsam o'la qolay dedim-da, o'sha kosadagi zaharning hammasini ichib qo'ydim. Lekin hanuz o'lganum yo'q. Endi nima qilsangiz o'zingiz bilasiz.

Tufaylidan so'rashibdi:

— Ishtahang bormi?

— Men bechoraning dunyoda bundan boshqa nimam bor?! — deb javob beribdi u.

Bir sodda odamning o'g'li quduqqa tushib ketibdi. Shunda u quduqqa engashib:

— Bolaginam, hech qayoqqa ketib qolma, hozir arqon topib kelib, seni tortib olaman, — deb qichqiribdi.

Bir kishi do'stidan:

— Ko'zim og'riyapti, nima qilsam ekan? — desa, do'sti:

— Bultur tishim og'rigan edi, sug'urib qutulgandim, — debdi.

Sulton Mahmud och qolgan ekan, unga baqlajon qovurib berishibdi. Bu ovqat Sulton Mahmudga ma'qul tushibdi va u, «baqlajon ham chakki taom emas ekan», deb qo'yibdi. Bu so'zni eshitib qolgan nadimni darhol baqlajonni maqtab ketibdi. Sulton Mahmud qo'ng'i to'y-gandan keyin: «Va-a, shuyam ovqat bo'ldimi, turgan-bitgani koni ziyon», debdi. Nadim o'sha zahoti baqlajonning zarari haqida bir dunyo gaplar aytibdi.

Sulton Mahmud hayron bo'libdi:

— Hoy, inson, hozirgina uni maqtab turgandimgu? — debdi. Shunda nadim:

— Ey shahriyor, men baqlajonning nadimi emas, sizning nadimingizman, shuning uchun sizga xush yoqadigan narsani gapirishim kerak, — debdi.

Ramazonning o'n beshida bir kishini «ro'zangni yeding», deb ushlabdi.

Haligi odam:

— Ramazonan necha kun o'tdi? — deb so'rabdi.

— O'n besh kun, — deb javob berishibdi odamlar.

— Necha kun qoldi?

— O'n besh kun.

— Men bechora bu o'rtada nimani yedim ekan? — debdi haligi odam.

Bir arab hajja borgan ekan, tavof qilayotgan vaqtida sallasini o'g'irlatib qo'yibdi.

— Ey xudo, — debdi arab, — bir marta uyingga kelgan edim sallamni olding, ikkinchi marta meni bu yerda ko'rsang, tishimni qoqib olar ekansan-da!

— Sen meni ahmoq qilib, ikki tangamni olmoqchi eding, ammo men sendan ustalik qildim: boshingni aylantirib, ikki tangaga ikki tishimni sug'urtirib oldim, — debdi.

Qishloqning xatibi bilan oqsoqolning oralari buzuq ekan. Oqsoqol qazo qilindi. Uni dafn etishgandan keyin odamlar xatibga:

— Qani, aying-chi, oqsoqol qanaqa odam ekan? — deb murojaat etishsa, xatib:

— Xudo haqqi, boshqa birov gapira qolsin, u kishi mening so'zimga g'araz bilan qaraydilar, — debdi.

Talhadan' birov:

— Rishvat nima? — deb so'rabdi.

— Buni qozillardan so'rash kerak, — deb javob beribdi Talhak.

Bir va'xon minbarga chiqib shunday debdi:

— Olamdan mast o'lgan banda qiyomat kuni ham go'rdan mast holatda bosh ko'taradi.

Majlis ahliidan bir xurosonlik bu so'zlarni eshitib:

— Bay-bay-bay, kayfi qiyomatgacha yetadigan bunday sharobning bir shishasi yuz dinorga arziydi-ya! — deb qo'yibdi.

Qazvinlik bir kishi tabibning oldiga borib, arz qilibdi:

— Soqolimning tuki og'riydi, bir ilojini topsang.

— Nima yegan eding? — deb so'rabdi tabib.

Talhak — Eronda Afandiga o'xshash folklor qahramoni.

9

Bir sodda odam har kecha boltasini omborxonaga yashirib o'shigini qullab qo'yar ekan.

Xotini undan so'rabdi:

— Nega doim boltani omborxonaga eltib qo'yasiz?

— Mushuk olib ketmasin deb berkitib qo'yaman-da, — debdi eri.

— Mushuk boltani nima qiladi?

— E nodon, bir chaqaga arzimaydigan o'pkani olib ketadiyu o'n dinorlik boltani olib ketmaydimi! — debdi sodda kishi.

Bir xurosonlik karvonda eshagini yo'qotib qo'yibdi va boshqa bir eshakni meniki deb minib olibdi. Karvon ahli undan:

— Eshaging erkakmide, urg'ochimide? — deb so'rabdi.

— Erkak edi, — deb javob beribdi u.

— Axir bu eshak urg'ochi-ku, — deyishibdi odamlar.

— Rostini aytсам mening eshagim unchalik erkak ham emas edi, — debdi xurosonlik.

Qazvinlikning tishi og'riyotgan ekan, jarrohning oldiga boribdi.

— Ikki tanga bersang sug'urib tashlayman, — debdi jarroh.

Qazvinlik bir tanga beraman deb savdolashibdi, bo'l-mabdi. Axiri ikki tanga berishga rozi bo'libdi va og'zini ochib, og'rimaydigan tishini ko'rsatibdi. Jarroh uni sug'urib tashlabdi.

— Eh, unisi emas, og'riq tishim bu yerda qolib, sog'ini sug'urding, — deb og'riyotgan tishini ko'rsatibdi qazvinlik.

Jarroh uni ham sug'urib tashlabdi.

Shunda qazvinlik jarrohga:

8

— Non bilan muz yegan edim.
 — Bor, dardi bedavoga yo'liqibsan, — debdi tabib, na darding odamning dardiga o'xshaydi, na yemishing.

Abu Ali ibn Sino Alovuddin qo'lidan qochib Hamadondan Bag'dodga ketayotganida Shatt daryosi bo'yida bir odam do'kon ochib, dori-darmon sotib, tabiblik da'vo qilib o'tirganini ko'rib qolibdi. Abu Ali ibn Sino tabibning do'koni atrofida biroz aylanib yuribdi va uning ishlariga razm solibdi. Shu payt bir ayol bemorning shishaga solingan siydigini keltirib tabibga beribdi. Tabib ayolga qarab: — Kasal yahudiymi? — debdi va yana qo'shib qo'yibdi, — sen shu kasalning xizmatkorimisan? Ayol uning so'zini tasdiqlabdi.

Tabib yana ayolga qarab:

— Kasalning uyi sharq tomondami? — deb so'rabdi.
 — Ha, shunday, — deb uning so'zini tasdiqlabdi ayol.
 — Kasal kecha qatiq ichganmidi?
 — Ha.

Hamma uning donoligiga qoyil qolibdi. Ibn Sino ham taajjublanibdi. Hali tabibning qo'li bo'shagandan so'ng Ibn Sino uning oldiga boribdi-da:

— Bu narsalarni sen qanday bilding? — deb so'rabdi.
 — Sening Abu Ali ibn Sino ekaningni qanday bilgan bo'lsam, bu narsalarni ham shunday bildim, — debdi tabib.
 — Bu undan ham mushkulroq ish-ku, — debdi Ibn Sino.

Tabib debdi:

— Shishani menga uzatganida qarasam, ayolning yengi kir ekan, demak u birovning xizmatkori bo'lishi kerak deb o'yladim. Yahudiy musulmonning xizmatini qilmaydi. Shuning uchun ham xo'jasining yahudiyligi aniq edi. Ayolning kiyimiga qatiq tomganini ko'rib, darrov anglandimki, o'sha uyda qatiq ichishgan va ozroq bemorga ham berishgan. Yahudiylarning uyi odatda sharq tomonda bo'ladi. Demak, bemor shaharning sharq tomonida yashaydi.

Bu gaplarning birini o'qib oling? — deb so'ragan Ibn Sino.

Bugun Abu Ali shifoni o'qib oling, lekin uning qo'liga qo'ling. Bundan tashqari uning qo'liga qo'ling. Buningdan sendan boshqa hech kim qo'liga qo'lmaydi.

Bir dehqonning o'g'li bor edi. Eshak o'lib qolib, uning o'g'li bor bilan boqishga majbur bo'ldi. Uning suti yetmagandan keyin dehqonning o'g'liga yolg'iz boqishni buyuribdi: «Ey xudo, mening o'g'limni, xudoga bota-chaqamning rizqini ber, uning o'g'li qol, qilyapti», — debdi.

Ertasiga og'ilxonaga bora oling. Dehqonning fig'oni falakda qolibdi.

— Ey xudo, men xudo qilgan edim, deb so'ragan uning o'g'li, dehqonning qo'liga qolibdi. — debdi.

Mirshablar kechasi bir o'zingdan qolibdi.

— Tur o'mingdan qolibdi, uning o'g'li qolibdi.

— O'mimdan tura qolibdi, uning o'g'li qolibdi.

Lo'li o'g'liga:

— Sen takaslang, lekin o'zingdan qolibdi, uning o'g'li qolibdi. Gapingni o'zingdan qilibdi, uning o'g'li qolibdi. U yerda qolibdi, uning o'g'li qolibdi. Bo'lasan o'zingning qo'liga qolibdi, uning o'g'li qolibdi. Nadomatda o'lib ketasan, uning o'g'li qolibdi.

— Non bilan muz yegan edim.
— Bor, dardi bedavoga yo'liqibsan, — debdi tabib, بَر na darding odamning dardiga o'xshaydi, na yemishing.

Abu Ali ibn Sino Alovuddin qo'lidan qochib Hamadondan Bag'dodga ketayotganida Shatt daryosi bo'yida bir odam do'kon ochib, dori-darmon sotib, tabiblik da'vo qilib o'tirganini ko'rib qolibdi. Abu Ali ibn Sino tabibning do'koni atrofida biroz aylanib yuribdi va uning ishlariga razm solibdi. Shu payt bir ayol bemorning shishaga solingan siydigini keltirib tabibga beribdi. Tabib ayolga qarab:
— Kasal yahudiymi? — debdi va yana qo'shib qo'yibdi, — sen shu kasalning xizmatkorimisan?
Ayol uning so'zini tasdiqlabdi.
Tabib yana ayolga qarab:

— Kasalning uyi sharq tomondami? — deb so'rabdi.
— Ha, shunday, — deb uning so'zini tasdiqlabdi ayol.
— Kasal kecha qatiq ichganmide?
— Ha.

Hamma uning donoligiga qoyil qolibdi. Ibn Sino ham taajjublanibdi. Hali tabibning qo'li bo'shagandan so'ng Ibn Sino uning oldiga boribdi-da:

— Bu narsalarni sen qanday bilding? — deb so'rabdi.
— Sening Abu Ali ibn Sino ekaningni qanday bilgan bo'lsam, bu narsalarni ham shunday bildim, — debdi tabib.
— Bu undan ham mushkulroq ish-ku, — debdi Ibn Sino.

Tabib debdi:

— Shishani menga uzatganida qarasam, ayolning yengi kir ekan, demak u birovning xizmatkori bo'lishi kerak deb o'yladim. Yahudiy musulmonning xizmatini qilmaydi. Shuning uchun ham xo'jasining yahudiyliги aniq edi. Ayolning kiyimiga qatiq torganini ko'rib, darrov angladimki, o'sha uyda qatiq ichishgan va ozroq bemorga ham berishgan. Yahudiyning uyi odatda sharq tomonda bo'ladi. Demak, bemor shaharning sharq tomonida yashaydi.

10

— Bu gaplaring ham ma'qul. Lekin meni qanday taniding? — deb so'rabdi Ibn Sino.

— Bugun Abu Ali Alovuddin qo'lidan qochibdi, degan xabarni eshitgan edim. Bag'dodga kelsa kerak, deb taxmin qildim. Bundan tashqari ma'lumki, mening bu mug'am-birligimga sendan boshqa hech kimning aqli yetmaydi.

Bir dehqonning sigiri, urg'ochi eshagi va xo'tigi bor ekan. Eshak o'lib qolibdi. Dehqon xo'tigini sigirning suti bilan boqishga majbur bo'libdi. Ortgan sut ro'zg'orga yetmagandan keyin dehqonning ta'bi xira bo'lib, xudoga yolvoribdi: «Ey xudo, xo'tikning jonini olib qo'ya qol, bola-chaqamning rizqiga sherik bo'lib, ularni sutdan mahrum qilyapti», — debdi.

Ertasiga og'ixonaga kirs sigiri o'lib yetganmish. Dehqonning fig'oni falakka chiqib:

— Ey xudo, men senga xo'tikning jonini olgin, deb iltijo qilgan edim, sen bo'lsang sigirni eshaktan farq qilolmabsan? — deb nola qilibdi.

Mirshablar kechasi bir mastni ushlab olishibdi.

— Tur o'rmingdan, seni zindonga olib boramiz! — deb unga dag'dag'a qilibdilar.

— O'rningdan tura olsam uyimga ketmasmidim, — debdi mast.

Lo'li o'g'liga:

— Sen takasaltang, hecham ish qilmaysan! Odam bo'lib umbaloq oshish, itni chamberakdan o'tkazish, dorbozlik qilishga o'xshagan ishlarni o'rgansang-ku, umring faro-g'atda o'tadi. Gapimga quloq solmasang, seni madrasaga beraman. U yerda rasvo bir ilmni o'rganib, donishmand bo'lasan u o'lguningcha yorug' kun ko'rmay, ming hasrat va nadomatda o'lib ketasan, — debdi.

11

Bir kishi payg'ambarlik da'vo qilgan ekan, uni gunohkor sifatida xalifa huzuriga olib boribdilar. Xalifa undan:

— Payg'ambar bo'lsang qanday mo'jiza ko'rsata olasan? — deb so'rabdi.

— Mo'jizam shuki, — debdi haligi odam, — ko'ngil-laringizdan nimaiki o'tsa, menga ayon bo'ladi. Masalan, hozir hammalaring ham: «Bu odam yolg'on gapiryapti», deb o'ylayapsizlar.

Bir xatibdan:

— Musulmonchilik nima? — deb so'rashibdi.

— Men bir xatibman, musulmonchilik bilan nima ishim bor, — deb javob beribdi u.

Hayit kuni Sulton Mahmud hammaga to'n kiygizibdi. Navbat Talhakka kelganda:

— Bunga to'qim olib kelib beringlar, — debdi. Unga to'qim keltirib berishibdi.

Ertasiga hamma yangi to'nini kiyib saroyga boribdi. Talhak ham o'sha to'qimni kiyib, Sulton Mahmud huzuriga kelibdi.

— Ey ulug'lar, — debdi Talhak, — Sultonning menga ko'rsatgan lutfu marhamatlari beqiyos. Sizlarga xazinadan to'n olib kiyizgan bo'lsalar, menga o'zlari kiyadigan to'nni in'om qildilar.

Horun ar-Rashid Bahluldan, eng yaqin do'sting kim, deb so'rabdi.

— Qornimni to'ydirgan kishi, — deb javob beribdi Bahlul.

— Qorningni to'yg'izsam meni ham do'st deb bilasanmi? — debdi Horun.

12

— Do'stlik ham nasiya bo'ladimi? — debdi Bahlul Horunga.

Bir va'xon minbarga chiqib:

— Kimki Odam Ato bilan Momo Havoning nomini yozib, uyiga osib qo'ysa, o'sha uyga zinhor shayton yo'lamaydi, — debdi.

Majlisda Talhak ham hozir ekan, bu gaplarni eshitib o'rmidan turibdi va shunday debdi:

— Taqsir, shayton bihishtga, xudoning oldiga borib Odam bilan Havoni yo'ldan urgan ediyu endi bizning uyda osilib turgan ularning ismidan tap tortarmidi?!

Bir kishi ikkinchisidan:

— Qayla «q» bilan yoziladimi, «g» bilanmi? — deb so'ragan ekan.

Sherigi:

— E, afandi, qayla «q» bilan ham emas, «g» bilan ham. Qayla go'sht bilan, — debdi.

Xalifa Mahdiy ovga chiqqan ekan, lashkaridan ajralib qolib, bir ko'chmanchi arabning uyida tunashga majbur bo'libdi. Arab uning oldiga ovqat va bir ko'zada sharob keltirib qo'yibdi. Mahdiy birinchi piyolani bo'shatib: «Men Mahdiyning mulozimlaridan bo'laman», debdi. Ikkinchi piyolani ichib bo'lganidan keyin: «Men Mahdiyning amirlaridan bo'laman», debdi. Uchinchi kosani ichib bo'lganidan keyin esa: «Man Mahdiyning o'zi bo'laman», debdi.

Shunda arab darrov ko'zani uning oldidan tortib olibdi-da, shunday debdi:

— Birinchi kosani ichib, xizmatkorlik da'vo qilding, ikkinchi kosani ichib, amirlik da'vo qilding, uchinchi kosani

13

ichib, xalifalik da'vo qilding, yana bir kosa ichsang, xudolik da'vo qilarsan-da.

Ertasiga Mahdiyning lashkari yetib kelganda arab qo'riqib, qochib ketibdi. Mahdiy uni topirib kelib, birmuncha oltin mukofot beribdi.

Talhak muhim bir ish bilan Xorazmshoh huzuriga kelgan ekan, ancha vaqt o'sha yerda qolib ketibdi. Xorazmshoh uning ishini tezroq bitirib berib yubora qolmabdi.

Bir kuni shoh huzurida qushlar va ularning xosiyati haqida suhbat quribdilar. Shunda Talhak:

— Laylakdan ziyrakroq qush bo'lmaydi, — debdi:

— Nega endi? — so'rashibdi odamlar.

— Chunki u hech qachon Xorazmga kelmaydi-da, — javob beribdi Talhak.

Sulton Mahmud o'tin orqalab ketayotgan bir cholni uchratib rahmi kelibdi.

— Hoy qariya, — debdi u, — shu og'ir mehnatdan qutulishing uchun senga uch-to'rt dinor oltin beraymi yoki bitta eshak bersam bo'ladimi, uch-to'rt qo'y in'om qilaymi yoki biror bog' ajratib beraymi? — deb so'rabdi.

— Ey sultonim, oltin bersang belimga bog'lab olar edim, bergan eshagingni minib, qo'ylarni oldimga solib, boqqa borar edim va qolgan umrimni seni duo qilib, chorbog'da o'tkazar edim, — debdi chol.

Sultonga bu gap ma'qul tushib, xuddi shunday qilishga farmon beribdi.

Mavlono Azudiddinning Alovuddin degan bir noibi bor ekan. Bir safarda uni ham o'zi bilan olib ketibdi. Noib yo'lga to'xtab sharob ichibdi. Mavlono bir necha bor orqamga qayrilib qurabdi. Noib ko'rinmabdi. Anchadan keyin

14

noib mast holatda mavlonoga yetib olibdi. Mavlono uning kayfiyatini ko'rib:

— Alovuddin, sen safarda biz bilan birga bo'larsan, deb umid qilgan edik, ammo ko'rinishingdan sen hatto o'zing bilan ham birga emassan-ku! — debdi.

Sulton Mahmud bir kuni xunob bo'lib o'tirgan ekan, Talhak uni jahlidan tushirish niyatida:

— Sultonim, otangning oti nima edi? — debdi tegishib.

Sultonga bu savol malol kelib, yuzini chetga buribdi. Talhak qarshisiga o'tib, yana shu savolni qaytaribdi.

Sulton Mahmud darg'azab bo'lib:

— Sakaltu it, bu bilan sening nima ishing bor?! — deb baqirib beribdi.

— Bo'ldi-bo'ldi, — debdi Talhak, — otangning otini bildim, endi bobongning otini aytasang bas!

Sulton kulib yuboribdi.

Ikki boy bilan bir kambag'al hajga borishibdi. Boylardan biri Ka'baning halqasini ushlashi bilanoq: «Xudoyo xudovando, meni eson-omon shu muqaddas yerga yetkazganing shukronasiga kanizaklarim Bulbon bilan Binafshani ozod qildim», debdi. Ikkinchi boy ham halqani ushlab: «Shu muqaddas yerga yetib kelganim shukronasiga g'ulomlarim Muborak bilan Suqanqurni ozod qildim», debdi.

Kambag'al halqani ushlab:

— Ey egam, o'zingga ayonki, mening na kanizagim va na g'ulomim bor. Bor-yo'g'im qizcham Fotimaning onasi, xolos. Mayli, men ham shu muqaddas joyga yetib kelganim shukronasiga qizimning onasi — xotinimni uch taloq qilib, nikohimdan ozod qildim, — debdi.

15

* * *

Badburush bir xo'janing o'zidan ham xunukroq bir no'ibi bor ekan. Bir kuni xizmatkor uning qo'liga oyna tutqazibdi. Noib oynaga qarab:

— Yo tavba, xudo bizni yaratganda xo'pam hafsalasizlik qilgan ekan-da, — deb qo'yibdi.

— Hoy kallavaram, — debdi xo'ja, — nega bizni deysan, meni desang bo'lmaydimi?

Noib oynani unga uzatib:

— Xo'jam, ishonmasangiz, mana, oynaga bir qarang, — debdi.

* * *

Bir kishi mehmonni pastdagi xonaga yotqizgan ekan, yarim kechada boloxonadan uning kulgisi eshilib qolibdi.

— U yerda nima qilyapsan? — so'rabdi uy egasi.

— Tushimda yiqilib ketibman, — javob beribdi mehmon.

— Odamlar tepadan pastga yiqilib tushsa, sen pastdan tepaga yiqilasanmi?

— Men ham shunga kulyapman-da, — debdi mehmon.

* * *

Xurosonda Xalaf degan bir hokim bor ekan. Unga falon qishloqda bir kishi bor, aynan sizga o'xshaydi, deyishibdi.

Hokim darrov o'sha odamni toptirib kelibdi va undan:

— Onang chayqovchilik qilib, ulug'larning eshigiga borib yurmasmidi? — deb so'rabdi.

— Mutlaqo, taqsir, — debdi haligi odam, — onam umrida ostona hatlab chiqmagan edi. Ammo otam ulug'larning xizmatini qilib, eshigida o'tin yonib, suv tashlab yurardi.

* * *

Bir kasalga tabib yetti yillik sirka ichishni tavsiya etibdi. Hemor do'stidan so'rab ko'rgan ekan, u:

— Menki bor-ku, ammo bermayman, — debdi.

— Nega?

— Har bir so'ragan kishiga beraveradiganda yetti yil turarmidi, — debdi unga do'sti.

* * *

Bir arabni xalifa huzuriga olib borishgan ekan, qarasa, xalifa taxtda, boshqalar pastda o'tirishibdi.

— Assalomu alaykum, yo Olloh! — debdi arab.

— Men Olloh emasman! — debdi xalifa.

— Yo Jabroil! — debdi arab.

— Men Jabroil ham emasman! — debdi xalifa.

— Olloh bo'lmasang, Jabroil bo'lmasang, nega bo'lmasa yuqorida o'zing yolg'iz o'tiribsan! Odam bo'lsang sen ham pastga tushib, odam qatori o'tirgin-da!

* * *


Bir qiziqchining otasi uchta qovurilgan baliq olib kelibdi. Qiziqchining o'zi uyda yo'q ekan, onasi kelinglar, u kelguncha bularni yeb qo'ya qolaylik, debdi. Dasturxon yozishibdi. Bir mahal qiziqchi kelib eshikni qoqibdi. Onasi darrov ikkita katta baliqni xontaxta ostiga berkitib, kichinasini dasturxonga qo'yibdi. Qiziqchi bu voqeani eshikning tiriqshidan kuzatib turgan ekan. Hamma dasturxon atrofiga o'tirgandan keyin, otasi:

— Yunus payg'ambarning hikoyasini eshitganmisan? — deb qiziqchidan so'rabdi.

— Mana bu baliqdan so'raymiz-da, — debdi qiziqchi va baliqni olib og'ziga qulog'ini tutibdi. — Bu baliq u vaqtda men kichik edim, bu narsani xontaxta tagida turgan ikkita katta baliqdan so'ra, o'shalar bilishadi, deyapti, — debdi.

* * *

Bir turk har gal hammomga kirganda: «Unim yo'qolibdi, bunim yo'qolibdi», deb hammomchining yoqasidan tutarkan. Borib-borib, otning qashqasiday hammomga ma'lum bo'lib



qolibdi va uni hech qaysi hammonga kiritmaydigan bo'libdilar. Bir kuni: «Agar bir nima deb da'vo qilsam, odam emasman» deb uch-to'rt kishini guvoh qilib hammonga kiribdi. Hammomchi darrov turkning kiyim-boshini o'rab, o'z uyiga yuboribdi. Turk hammomdan chiqib «g'ing» deyolmabdi va qip-yalang'och badaniga qayishni bog'lab, qilichini osib olibdi-da, odamlarga qarab:

— Ey musulmonlar, men-ku, da'vo qilolmayman va da'vo qilishga haqqim ham yo'q, ammo sizlar bu hammomchidan so'ranglar-chi, nahotki men sho'riik shu alfozda hammonga kelgan bo'lsam? — debdi.

Xurosonlikning otasi quduqqa tushib ketib o'lib qolibdi. Odamlar kelib ulfatchilik qilib o'tirgan o'g'liga:

— Tur, otang quduqqa tushib ketdi, — deyishibdi.

Subhatni chala tashlab ketgisi kelmagan xurosonlik:

— Hechqisi yo'q, erkak kishi qayerni xohlasa o'sha yerga tushaveradi, — debdi.

— O'lib qolgandir, — deyishibdi odamlar.

— Dunyoda o'lmaydigan zot bormi, sher ham o'la-diku, — debdi.

— Yur, tortib olaylik.

— Tortmasdan ham bilaman, ellik man keladi.

— Tur bo'lmasa, ko'maylik.

— Mening borishim shartmi? Oltin bo'lsa ham men sizlarga ishonaveraman. Boringlar, ko'maveringlar, — debdi.

Arobek Salg'arshoh Majjiddiddinga beqasam to'n hadya etibdi. To'ning bir necha joyiga «Loilo ho illo loh» deb yozib qo'yilgan ekan. To'n eskiroq ekan shekilli. Majjiddinga unchalik yoqmabdi. O'tirganlardan bittasi, nega «Muhammadur Rasululloh» degan so'zni yozmabdi, deb so'ragan ekan, Majjiddiddin:

— Bu to'n Rasulullohdan oldin tikilgan, — deb javob beribdi.

18

Bir kishi payg'ambarlik da'vo qilgan ekan, uni xulla Ma'mun huzuriga olib borishibdi. Ma'mun uning ahvolidan ko'rib:

— Ochlikdan buning miyasi aynibdi, — debdi va ahvolidan pazni chaqirib: — Bu odamni oshxonaga olib borib, taqsi yumshoqqina ko'rpacha sol, to o'ziga kelguncha har bir lazzatni taom, xushbo'y sharoblardan berib tur, — debdi.

Haligi odam birmuncha vaqt oshxonada yotib yuribdi va anchagina o'ziga kelib qolibdi. Bir kuni Ma'munning ahvolidan tushib, uni yo'qlabdi.

— Jabroil hali ham oldingga kelyaptimi? — deb so'rab undan Ma'mun.

— Ha, kelyapti.

— Nima deydi?

— Endi yaxshi joyni topib olibsan. Bunaqa nozu odamlar har qanaqa payg'ambarga ham nasib bo'lavermaydi. Zinhor bu yerdan jilma, deydi.

Domg'onlik mavlono Sharafiddin machit oldidan olib ketayotganida, machit qorovuli bir itni bog'lab qo'yib kaltaklayotgan ekan. Bechora itning vangillashini eshitib mavlono machit eshigini ochgan ekan, it yechilib qolib ketibdi. Qorovul mavlononi koyibdi. Shunda mavlono:

— Ey birodar, qo'yaver. Itning aqli yo'q-da, aqisizlikdan machitga kelib qolgan. Mana, xudoga shukur, bizning hushimiz joyida, shuning uchun hech qachon machit kelmaymiz, — debdi.

Bir darvish birovning eshigiga borib non so'ragan ekan, bir qizcha chiqib:

— Non yo'q, — debdi.

— O'tinchi yoki boshqa biror yoqishga arzigullik topiladimi?

— Yo'q.

19

qolibdi va uni hech qaysi hammomga kiritmaydigan bo'libdilar. Bir kuni: «Agar bir nima deb da'vo qilsam, odam emasman» deb uch-to'rt kishini guvoh qilib hammomga kiribdi. Hammomchi darrov turkning kiyim-bo-shini o'rab, o'z uyiga yuboribdi. Turk hammomdan chiqib «g'ing» deyolmabdi va qip-yalang'och badaniga qayishni bog'lab, qilichini osib olibdi-da, odamlarga qarab:

— Ey musulmonlar, men-ku, da'vo qilolmayman va da'vo qilishga haqqim ham yo'q, ammo sizlar bu hammomchidan so'ranglar-chi, nahotki men sho'riq shu alfozda hammomga kelgan bo'lsam? — debdi.

Xurosonlikning otasi quduqqa tushib ketib o'lib qolibdi. Odamlar kelib ulfatchilik qilib o'tirgan o'g'liga:

— Tur, otang quduqqa tushib ketdi, — deyishibdi.

Subhatni chala tashlab ketgisi kelmagan xurosonlik:

— Hechqisi yo'q, erkak kishi qayerni xohlasa o'sha yerga tushaveradi, — debdi.

— O'lib qolgandir, — deyishibdi odamlar.

— Dunyoda o'lmaydigan zot bormi, sher ham o'la-diku, — debdi.

— Yur, tortib olaylik.

— Tortmasdan ham bilaman, ellik man keladi.

— Tur bo'lmasa, ko'maylik.

— Mening borishim shartmi? Oltin bo'lsa ham men sizlarga ishonaveraman. Boringlar, ko'maveringlar, — debdi.

Arobek Salg'arshoh Majjiddiddinga beqasam to'n hadya etibdi. To'nni bir necha joyiga «Loiloho illoloh» deb yozib qo'yilgan ekan. To'n eskiroq ekan shekilli. Majjiddinga unchalik yoqmabdi. O'tirganlardan bittasi, nega «Muhammadur Rasululloh» degan so'zni yozmabdi, deb so'ragan ekan, Majjiddiddin:

Bu to'n Rasulullohdan oldin tikilgan, — deb javob beribdi.

Bir kishi payg'ambarlik da'vo qilgan ekan, uni xalifa Ma'mun huzuriga olib borishibdi. Ma'mun uning ahvolini ko'rib:

— Ochlikdan buning miyasi aynibdi, — debdi va osh-pazni chaqirib: — Bu odamni oshxonaga olib borib, tagiga yumshoqqina ko'rpacha sol, to o'ziga kelguncha har kun lazatli taom, xushbo'y sharoblardan berib tur, — debdi.

Haligi odam birmuncha vaqt oshxonada yotib yuribdi va anchagina o'ziga kelib qolibdi. Bir kuni Ma'munning esiga tushib, uni yo'qlabdi.

— Jabroil hali ham oldingga kelyaptimi? — deb so'rabdi undan Ma'mun.

— Ha, kelyapti.

— Nima deydi?

— Endi yaxshi joyni topib olibsan. Bunaqa nozu ne'matlar har qanaqa payg'ambarga ham nasib bo'lavermaydi. Zinhor bu yerdan jilma, deydi.

Domg'onlik mavlono Sharafiddin machit oldidan o'tib ketayotganida, machit qorovuli bir itni bog'lab qo'yib kaltaklayotgan ekan. Bechora itning vangillashini eshitib mavlono machit eshigini ochgan ekan, it yechilib qochib ketibdi. Qorovul mavlononi koyibdi. Shunda mavlono:

— Ey bitodar, qo'yaver. Itning aqli yo'q-da, aqlsizlikdan machitga kelib qolgan. Mana, xudoga shukur, bizning es-hushimiz joyida, shuning uchun hech qachon machitga kelmaymiz, — debdi.

Bir darvish birovning eshigiga borib non so'ragan ekan, bir qizcha chiqib:

— Non yo'q, — debdi.

— O'tinchi yoki boshqa biror yoqishga arzigulik narsa topiladimi?

— Yo'q.

- O'zginagina tuz-chi?
- Yo'q.
- Bir ko'zacha suv olib chiq, bo'lmasa.
- Suv ham yo'q.
- Onang qayerda?
- Qarindoshimiznikiga ta'ziya bildirgani ketgan.
- Alvollaring shu bo'lsa, qarindoshlaring sizlarnikiga ta'ziya bildirgani kelsa arzirdi, — debdi darvish.

* * *

Isfahonlik bir dehqon Xo'ja Bahovuddin eshigiga borib, shunday debdi:

- Xo'ja Bahovuddinga ayt, eshikda Xudo kutib turibdi, senda ishi bor ekan, degin.
- Eshik og'a ichkariga kirib, bu xabarni xo'jaga aytibdi. Xo'ja haligi odamni chaqiribdi. Ichkari kirishi bilan oq:
- Sen Xudomisan? — deb so'rabdi.
- Balle, Xudoman.
- Qanaqa Xudo?
- Ilgari men dehxudo, beg'xudo, xonaxudo¹ edim, sening o'lponchilaring qishlog'imni, bog'imni, hovlimni tortib oldi, endi faqat Xudosi qoldi, xolos.

* * *

- Bir kishi bog'ida aylanib yurgan ekan, qarasa, o'g'ri bir talay piyozni qoplab qo'ygannmish.
- Bu bog'da nima qilib yuribsan? — debdi bog' sohibi o'g'ridan.
- Ko'chadan o'tib ketayotgan edim, qattiq shamol turib meni ko'tarib shu yerga tashladi, — debdi.
- Piyozlarni nega sug'urding?
- Shamol yana uchirib ketmasin deb piyozning bandidan ushlagan edim, tagi yumshoq ekan, ildizi bilan chiqib ketdi.

¹ Xudo — forschada egalik ma'nosini anglatadi; dehxudo, bog'xudo, xonaxudo — qishloq egasi, bog' egasi, xona egasi.

- Bu gapingga ko'ndim. Bo'lmasa ayt-chi, qopga kim soldi?
- Xudo haqi, men ham shuni o'ylab hayron bo'lib turgan edim, sen kelib qolding.

* * *

- Bir kishi qazvinlikning uyida namoz o'qimoqchi bo'lib:
- Qibla qaysi tomonda? — deb so'rabdi.
- Ko'chib kelganimizga bor-yo'g'i ikki yil bo'ldi, qibla qay tomonda ekanini qaydan bilay, — debdi uy egasi.

* * *

- Bir darvish chorig'ini yechmasdan namoz o'qiyotgan ekan, choriq payiga tushgan o'g'ri:
- Choriq bilan o'qilgan namoz inobatga o'tmaydi, — debdi.
- Namozim inobatga o'tmasa, loqaqal choriq o'zimdagi qoladi-ku, — debdi darvish.

* * *

- Bir sodda kishi va'xonlik majlisida o'tirgan ekan, va'xon minbarga chiqib:
- Pulisirotdan sochdan ingichka, qilich tig'idan o'tkir bo'ladi, qiyomat kuni hamma o'shandan o'tishi kerak, — debdi.
- Sodda o'rmidan turib:
- Taqsir, pulisirotning ushlaydigan biror panjarasi yoki biror tutqichi bordir, axir? — deb so'rabdi.
- Yo'q, hech qanaqa panjarasi ham, tutqichi ham yo'q.
- Odamni masxara qilmang! Unda faqat qushlar uchib o'tishi mumkin ekan-da! — debdi sodda.

* * *

- Bir da'vogar turkman ko'zani ohakka to'ldirib ustiga o'zgina dumba yog' qo'yibdi-yu, pora tarzida qoziga olib

boribdi. Qozi ko'zani olib, ishini turkman foydasiga hal qilibdi va uning qo'lga muhr qo'yib, imzo chekilgan bir qog'oz qilib beribdi. Bir haftadan keyin ko'zaning siri ochilibdi. Qozi turkmanni qozixonaga chaqirib:

— O'sha qog'ozni olib kel, ozgina xato ketgan ekan, tuzatib beray, — debdi.
— Taqsir, qog'ozda-ku xato yo'g'-a, ko'zada bo'lsa bordir, — debdi turkman.

Bir qazvinlik o'qsiz kamonni ko'tarib, jangga chiqibdi.
— O'qlaring qani? — deb so'rashibdi odamlar.
— Dushman tomondan kelib qolar, — debdi qazvinlik.
— Kelmasa nima qilasan? — deb so'rashibdi undan.
— Unda urush bo'lmaydi-da, — deb javob beribdi qazvinlik.

Bir kambag'al kishining uyiga o'g'ri tushgan ekan. Birdan uy egasi uyg'onib qolibdi va o'g'riga:
— Ey birodar, sen qorong'ida izlayotgan narsani biz kupa-kunduzi qidirib topolmaymiz-ku, — debdi.

Bir xasisning qovurilgan tovuqni uch kundan beri dasturxonga olib kelib, yemasdan olib borib qo'yayotganiga razm solib yurgan bir donishmand:
— Bu tovug'ingizning umri tirikligidan ham uzunroq shekilli, — debdi.

Talhak farzand ko'ribdi. Sulton Mahmud undan:
— Xotining nima tug'di? — deb so'rabdi.
— Kambag'aldan nima tug'ilardi, yo qiz, yo o'g'il-da, — debdi.

— Ulug'lardan nima tug'iladi?
— Ulug'lardan bevosh, bema'ni, befarosat tug'iladi, — debdi Talhak.

Bir qazvinlikni mirshab qilib tayinlashibdi. Namozgarga yaqin birovni ushlab:

— Men mirshabman, seni zindonga olib borishim kerak, — debdi.
— Mirshab degan odamlarni kunduzi ushlaydimi? — debdi haligi kishi.
— Kechasi seni qayerdan topaman? — debdi mirshab.

Sulton Mahmud qahraton qishda Talhakdan so'rabdi:
— Men bu sovuqda shuncha kiyim bilan diydirab yuribmanu sen avrasiz to'n bilan qanday chidayapsan?
— Sen ham men qilgan ishni qilsang maza qilib yuraverasan, — debdi Talhak.
— Sen nima qilding?
— Men bor to'nimning hammasini kiyib oldim.

Shamsiddin Muzaffar bir kuni shogirdlariga shunday nasihat qilibdi:

— Ilm-ma'rifat degan narsani yoshlikda o'rganish kerak. Yoshlikda nimaiki qulog'ingga kirsan, shunday quyilib qoladi. Mana men ellik yildirki, fотиha surasini yod bilaman, vaholanki, shu ellik yil davomida biror marotaba ham bu surani o'qiganim yo'q.

Bir kishi qushga qarab o'q uzgan ekan, o'qi xato ketibdi. Yonida turgan o'rtog'i buni ko'rib:
— Ofarini! — deb yuboribdi.

- Nima, meni kalaka qilyapsanmi? — debdi mergan.
- Yo'q, men «ofatin»ni senga emas, qushga aytdim.

* * *

Talhakning kavushini machitdan o'g'irlab, cherkovning dahliziga olib borib qo'yishibdi.

- Yo Robbim, — debdi Talhak, — o'zim musulmon bo'lsam ham kavushim tarso-ya.

* * *

Ikkita ashulachi bir kuy ustida torttishib qolibdi. Biri, «sen menga quloq sob», desa, ikkinchisi, «sen menga quloq sol», derkan. Uy egasi bularning mashmashasidan xunob bo'lib:

- Ey birodarlar, sizlar menga quloq solinglar! — debdi.

* * *

Bir kishi Talhakdan:

- Turnani qanday qilib kabob qilsa bo'ladi? — deb so'rabdi.
- Sen avval tutib kelgin, keyin bir gap bo'lar, — debdi Talhak.

* * *

Bir kishi do'stidan ot so'rab borgan ekan, do'sti:

- Otim boru, lekin qora-da, — debdi.
- Iya, qora otni minib bo'lmaydimi? — debdi do'sti.
- Bergim kelmagandan keyin biror bahona ko'rsatishum kerakmi axir, — debdi.

* * *

Bir qashshoq ko'chada o'g'li bilan ketayotgan ekan, odamlar tobut ko'tarib o'tib qolishibdi. O'g'li otasidan:

- Tobutning ichida nima bor? — deb so'rabdi.
- Odam, — debdi otasi.

24

- Qayoqqa olib ketishyapti?
- Shunday bir yerga olib borishyapti, bolam, u yerda na kiyishga kiyim bor, na yeyishga non, na ichishga suv, na yoqishga o'tin, na to'shaydigan bo'ya bor, na o'tiradigan gilam.
- Bo'lmasa, bizning uyga olib borishayotgan ekan-da!

* * *

Bir kishi mavlono Azudiddindan:

- Sultoniyaning muzi sovuqroqmi, Abhamikimi? — deb so'ragan ekan, mavlono:
- Sening savoling har ikkalasidan ham sovuqroq, — debdi.

* * *

Sohibdevon Aziz Pahlaviyga:

- Aqliroq bir odam bo'lganida falon yumush bilan falon joyga yuborar edim, — desa, Avaz:
- Taqdir, esi bor odam bu yerda o'tirarmidi, — debdi.

* * *

Sohibdevon Xo'ja Shamsiddin Avaz Pahlavonmi Luristonga yuborib, qaytishda tozi itlardan bir nechta olib kelishini buyuribdi. Avaz Pahlavon it olishi kerakligi Tabrizga yetganida esiga tushibdi. Bozorga odam yuborib, bir nechta it oldirib kelibdi va ularni sohibdevonga olib beribdi.

- Men senga tozi it olib kelgin degan edim, — debdi sohibi devon. — Tozi it qanaqa bo'ladi?
- Tozi itning qulog'i uzun, dumi ingichka, qorni ichiga kirib ketgan bo'ladi.

— Dum bilan quloq masalasida-ku, bir nima deyolmayman, lekin bu itlar besh kun sohibdevon eshigida tursa, ochlikdan shu qadar qorni ichiga kirib ketadiki, uzukdan ham o'tkazishingiz mumkin bo'lib qoladi, — debdi Avaz Pahlavon.

25

Mavlono Rukniddin kasal ko'rgani borgan ekan.

- Nima bo'ldi senga? — deb so'rabdi bemordan.
- Safrom bilan issig'lig'im oshib ketganga o'xshaydi, — debdi bemor.
- Safrong oshib ketishi mumkin-ku, lekin sening issig'lig'ing oshib ketishiga aqlim bovar qilmaydi, — debdi mavlono Rukniddin.

Bir qalandar tomirini tabibga ushlatib:

- Nima kasalim bor? — deb so'rabdi.
- Sening kasaling ochlik, — debdi tabib va uning oldiga bir lagan halim keltirib qo'yibdi. Qalandar qorni to'ygandan keyin tabibga qarab:
- Bizning chodirda yana o'n kishi shu kasal bilan og'rib yotibdi, taqsir, — debdi.

Mol-davlatda o'z zamonasining Qoruni bo'lmish kattakon bir boyni ajal giribonidan mahkam ushlaganda hayotdan umid uzishga majbur bo'libdi va bolalarini atrofiga yig'ib, shunday vasiyat qilibdi:

- Ey bolajonlarim, mol-dunyo orttirish, birim ikki bo'lishi uchun ne-ne zahmatlar chekdim, qanchadan-qancha uzoq safarlarda bo'lib, juda ko'p yo'l azoblarini tortdim. Endi sizlar buni ehtiyot qilinglar. Birov dadalarini tush ko'rdim, qiyma bilan halvoga havasi kelibdi desa, zinhor uning aldoviga uchmanglar, birinchidan, men unday gapni aytmayman, ikkinchidan, o'lik hech narsa yemaydi. Agar mening o'zim ham tushlaringga kirib, shu iltimosni qilsam, hech qanday iltifot ko'rsatmanglar, chunki tush degan narsa palapartish bo'ladi. Undan keyin tirikligimda yemagan narsamni men hech qachon o'lganimdan keyin havas qilmayman...

26

Bir tiyin uchun o'zini tomdan tashlaydigan bir boyg'a:
— Xasislik ham evida-da, bir tiyin uchun yuz dumasang nima qiladi? — deyishsa, u:

- Nega endi men bir kun, bir hafta, bir oy, bir yil, bir umrga yetadigan molimdan kechar ekanman? — debdi.
- Bu nima deganing? — deyishibdi odamlar.
- Agar bu bir tiyinni tuzga bersam bir kunga yetadi, hammomchiga bersam bir haftaga, kir yuvuvchiga bersam bir oyga, supurgiga bersam bir yilga yetadi, mix sotib olib devorga qoqsam, bir umrga yetadi. Shuncha kunimga yaraydigan narsani nega endi ehtiyot qilmas, qadriga yetmas ekanman?!

Davlatmand bir kishi g'ulomiga: «O'z pulingga ozgina go'sht olib, bir nima pishirib ber, yeb, seni ozod qilaman», debdi.

G'ulom suyunib, go'sht qovurib xo'jasining oldiga keltirib qo'yibdi. Xo'jasi ozgina yeb, qolganini g'ulomiga qaytarib beribdi. Ertasiga o'sha go'shtdan no'xat sho'rva qilib kelishini buyuribdi va no'xat sho'rvani ichib, uni ozod qilishga va'da beribdi. G'ulom uning amrini bajo keltiribdi. Xo'jasi buni ham paqqos uribdi. To'rtinchi kun go'sht eskirib buzilib qolibdi.

Boy g'ulomiga:

- Bu go'shtni sotib ozgina yog' olib kelgin-da, menga ovqat pishirib bergin, yeb, seni ozod qilaman, — debdi.
- Ey boy, — debdi g'ulom, — men g'ulomlikka ko'nikib qolgan odamman. Agar biror xayri ish qilmoqchi bo'lsang, shu go'shtni ozod qilib qo'ya qol...

Bir kishi do'stiga:

- Elik man bug'doyim bor edi, bexabar qolibman, barini sichqonlar tashib ketibdi, — debdi.

27

— Mening ham ellik man bug'doyim bor edi, sichqonlar xabar topguncha yeb qo'ya qoldim, — debdi do'sti.

* * *

Talhakning xachirini o'g'irlab ketishibdi. Bir kishi, ayb o'zingda, ehtiyot qilmabsan, debdi. Ikkinchisi, ayb sayisda, og'lxona eshugini yaxshi berkitmagan, debdi.

— Bo'ldi, bo'ldi, — debdi Talhak, — senlarcha ayb o'g'rida emas, o'zimizda ekan-da.

* * *

Bir garang qazvinlikdan:

— Xotin olibsan, deb eshitdim, rostmi? — deb so'rabdi.

— Xudoyo tavba, — debdi qazvinlik, — shu kar qulog'ing bilan bu gapni qanday eshitding?

* * *

Xurosonlikning bir qirchang'i oti bor ekan. Undan:

— Nega otingga arpa bermaysan? — deb so'rabdilar.

— Bir kechada o'n man arpa yeydi-ku, — debdi u.

— Nega bo'lmasa bunchalik ozg'in?

— Men undan bir oylik arpa qarzdorman-da, — debdi xurosonlik.

* * *

Abomashid Sheroziy ismli bir kishi kabobpazilik qilgan ekan. Bir kuni u sersuyak go'sht qovurgan ekan, hech kim olmabdi. Buzilib qolishidan qo'rqib, g'assol oldiga boribdi.

— Birdan ajal giribonimdan ushlab qolsa, holimni so'raguvchi biror kimsa topilmay qoladimi, deb qo'rqaman. Do'konda qo'zikabobim bor, senga bermoqchiman, bola-chaqang bilan yegin. Mabodo ajalim yetsa, meni yuvib, kafanlaysan, — debdi.

G'assol rozi bo'libdi. Qo'zikabobni olib kelib, bola-chaqasi bilan yebdi. Shu gapdan bir hafta o'tgach, Abomashid g'assolning uyiga kelib:

28

— Damashqqa ketyapman, kiyinib chiq, — debdi.
— Bu nima deganing, tushunmadim? — debdi mur-dasho'y.

— Men seni kerak bo'lib qolganingda kunimga yararsan, deb ijaraga olgandim, sen yebketarga deb o'ylaganmiding? — debdi kabobpaz.

G'assol bechora qovurmaning haqini to'lab undan zo'rg'a qutulibdi.

* * *

Bir sherozlik machitda nasha pishirayotgan ekan, machitning qorovuli buni ko'rib so'kib beribdi. Sherozlik bunday razim solib qarasa, qorovul ham kal, ham ko'r, ham cho'loq ekan.

— Hoy birodar, — debdi u, — xudo-ku, senga ko'p ham lutfu marhamat ko'rsatmabdi, nega endi sen uning uyi uchun bunchalik qayg'uryapsan?

* * *

O'g'rilar bir sodda kishining eshigini o'g'irlab ketishibdi. U esa borib machitning eshigini sug'urib kelibdi. Bu holni ko'rgan odamlar:

— Bu nima qilganing? — deb so'rashibdi.

— Xudo mening eshigimni o'g'irlab ketgan o'g'rini taniydi, endi o'sha o'g'rini topib bermagunicha men ham uning uyi eshigini qaytarib bermayman, vassalom! — deb javob beribdi haligi sodda odam.

* * *

Bir kal hammomga kirgan ekan, telpagini o'g'irlab qo'yishibdi. Darhol hammomchining yoqasidan olibdi. Hammomchi unga:

— Kelganingda bosh yalang eding! — debdi.

— Ey musulmonlar, bu bosh axir telpaksiz yuradigan boshlardan emas-ku! — deb baqiribdi kal axir atrofidagi-larga.

29

* * *

Shariat peshvolaridan biri bir sodda kishiga:

— Agar Ka'ba xaramining qumi kishining kavushi ichiga tushib qolsa, meni o'z joyimga eltib qo'y, deb xudoga yolvorarkan, — debdi.

— Bechora, tomog'i yoritguncha yolvorsa kerak, — debdi sodda.

— Kallavaram, qumni tomog'i bo'larmidi?

— Tomog'i bo'lmasa qanaqa qilib yolvoradi?

* * *

Ali Mavlono Qutbiddin bir ulug' kishining uyiga kasal ko'rgani boribdi va qanaqa dardga chalinding deb so'rabdi.

— Isitimam oshib, bo'ynim qattiq og'riydi. Lekin xudoga shukur, bir-ikki kundan beri isitimam arib qoldi, ammo bo'ynim hanuz og'riydi, — debdi kasal.

— Hechqisi yo'q, — debdi mavlono Qutbiddin, — sabr qilsang, shu bir-ikki kunda bo'yning ham uzilib, dardi arib qolar.

* * *

Va'z aytayotgan kishiga birov:

— Shayton xotinining oti nima? — deb savol bergan ekan, va'xon savol bergan kishini chaqirib uning qulog'iga:

— Kallavaram, ammamning buzog'i, men buni qayoqdan bilay?! — debdi.

Kelib joyiga o'tirgandan keyin boshqa odamlar undan:

— Nima dedi? — deb so'rabdi.

— Bilmoqchi bo'lsalaring, turib o'zlaridan so'ranglar, — debdi haligi kishi.

* * *

Bir kambag'al ijaraga uy olgan ekan. Kechasi bilan uyning to'sinlari qisirlab chiqibdi. Kambag'al uyning egasi bo'lmish mullaga:

30

— Uyning u yoq-buyog'ini tuzatib bermaysizmi, kechasi bilan qisirlab odamni bezovta qilyapti, — desa, uy egasi:

— Hechqisi yo'q, uyimning to'sinlari kechasi bilan xudoning zikrini qilib chiqadi, — debdi.

— Xudoning zikrini qilgani-ku yaxshi-ya, ammo sajda qilaman deb yerga bosh qo'ymasmikin deb, qo'rqaman, — debdi kambag'al.

* * *

Bir masxaraboz qahatchilik yili bir qishloqqa boribdi. Qishloq oqsoqoli betob yotganini eshitib, u o'zini tabib deb tanishtiribdi. Uni darhol qishloq oqsoqoli huzuriga olib borishibdi. Ittifoqo o'sha kuni oqsoqolning uyida non yopishayotgan ekan. Masxaraboz oqsoqolni davolash uchun bir man yog' bilan bir man asal so'rabdi. Darrov hozirlashibdi. Masxaraboz yog' bilan asalni kosaga solib, dasturxonga qo'yilgan nonlardan bir nechtasini to'g'rabdi-da, kasalning boshidan aylantirib, o'z og'ziga solaveribdi, qorni to'ygach:

— Shu davolaganim bugunga yetar, qolgani ertaga, — debdi.

Kechasi oqsoqol og'irlashib, o'lib qolibdi.

— Bu qanaqa davolash edi, sen ketishing bilan uning joni uzildi-ku, — deyishibdi odamlar.

— Qo'yaveringlar, kecha o'sha narsani yemaganimda men undan oldinroq bandalikni bajo keltirgan bo'lardim, — debdi masxaraboz.

* * *

Changi degan kishi Abubakir degan bir kambag'al oshnasinikida kechasi tunab qolibdi. Qahraton qish ekan, sovuqda Changi uxlolmabdi.

— Abubakir, ustimga biror narsa tashlamasang bo'l-maydi, — debdi u uy egasiga.

Uyda bir bo'ya bor ekan, mehmonning ustiga o'shani tashlab qo'yibdi.

31

Mchmon birozdan keyin ustimga yana biror narsa tashla, deb iltimos qilibdi. Uyda narvoncha turgan ekan, Abubakir o'sha narvonchani qo'yibdi. Birozdan keyin mchmon yana uy egasini uyg'otib:

— Do'stim, bo'lmadi, sovqotyapman, boshqa narsang yo'qmi? — debdi.

Abubakir o'rindan turib qarasa, uyda bir chelak suvdan boshqa narsa yo'q ekan, nochor o'sha chelakni ham mehmon ustiga qo'yibdi. Sal fursat o'tmay, Changi qimirlagan ekan, chelakdagi suv chayqalib, bo'yraning teshiklaridan ustiga o'tibdi.

— Hoy, Abubakir, — deb yana uy egasini uyg'otibdi, — tur, ustimdagi ko'rpalarni olib qo'y, terlab, butunlay ho'l bo'lib ketdim.

Bir ayol Vosih xalifa huzuriga payg'ambarlik da'vo qilib borgan ekan, xalifa undan:

— Muhammad payg'ambarmidi? — deb so'rabdi.

— Balli, — debdi ayol.

— Muhammad «lonabiya ba'di», ya'ni mendan keyin payg'ambar bo'lmaydi, degan-ku, — debdi. Shunda ayol:

— Muhammad «lonabiya ba'di», ya'ni mendan keyin erkak zotidan payg'ambar bo'lmaydi, degan, «lonabiyata ba'di», ya'ni ayol zotidan payg'ambar bo'lmaydi, degan gapni aytgan emasku! — debdi.

Birov qabristonni aylanib yurib, uzundan-uzun bir go'rga ko'zi tushib qolibdi va bu go'r kimniki, deb so'rabdi.
— Rasul alambardorning' go'ri, — deb javob berishibdi.

Alambardor — bayroqbardor.

Tulkidan:

— Itidan qochib qutulish uchun qancha ayyorlik ishlata olasan? — deb so'rasha, tulki:

— Yuzdan ortiq, lekin eng yaxshisi unga ro'baro' kelmaslik, — deb javob beribdi.

Shayx Badrididdin ikki sohibjamol bilan suhbat qurib o'tirgan odamni ko'rib:

— Hoy, menga qara, oting nima seni? — deb so'rasa, haligi odam:

— Abdulvohid¹, ya'ni birubarning quliman, — debdi.

— Bo'lmasa tur o'rmingdan, men har ikkalasining quli bo'laman, — debdi Shayx Badrididdin.

Bir sodda bolakay xumga qarab o'z aksini ko'ribdi-yu:
— Oyi, xumning ichiga o'g'ri kirib olibdi, — deb baqiribdi.

Oyisi yugurib kelib xumga qarabdi va yoqasini ushlab:

— Voy bolam, o'g'rining yonida bir yosuman kampir ham turibdi-ku! — debdi.

Ko'pkari paytida bir ot boshqa otlardan o'zib ketibdi. Bir odam xursandchilikdan chapak chalib, qiyoqirib yuboribdi. Shunda uning yonida o'tirgan kishi:

— Ot senikimidi? — deb so'rasa, haligi odam:

— Ot-ku, meniki emas, ammo bo'ynidagi yugani meniki! — deb javob beribdi.

¹ Vohid — birubar.

* * *

Bir boyning uch xotini bo'lib: biri eronlik, biri arab, biri kurd ekan. Xotinlar uni har kuni erta saharda namozga uyg'otisharkan.

Bir kuni eronlik xotini namozga uyg'otganda u xotinidan:
— Malikam, tong otganini qayoqdan bilasan? — deb so'rasa, eronlik xotini:

— Tong chog'i dimog'imga gulu rayhonlarning xushbo'y hidi, qulog'imga qushlarning yoqimli navosi kirib, uyg'onib ketaman, — debdi.

Ikkinchi kuni boy arab xotini uyi uyi uyi bo'lgan ekan, unga ham shu savolni beribdi.

— Begim, tong chog'i bo'yimdagidagi marvaridimga shabnam tushganidan seskanib uyg'onib ketaman, — debdi. Uchinchi kuni kurd xotini uyi uyi tunagan bo'y:

— Qani ayt-chi, malikam, kun yorishganini sen qayoqdan bilasan? — desa, xotini:

— Saharda zahar tang qilib uyg'onib ketaman va shundan tong otganini bilaman, — debdi.

* * *

Birov besh barmog'ini og'ziga tiqib ovqatlanayotgan ekan, unga:

— Besh barmog'ingni tiqmasang bo'lmaydimi? — deyishsa, u:

— Barmog'im beshta bo'lsa nima qilay? — debdi.

* * *

Birov do'stiga bir iltimos bilan murojaat qilgan ekan, do'sti iltimosini rad qilibdi va so'kib beribdi.

— Hoy birodar, iltimosimni yerda qoldirganing-ku mayli, yana so'kkaning nimasi? — desa, do'sti:

— Quruq ketma dedim-da! — debdi.

* * *

Bir qazvinlikdan:

— Amir al-mo'mininni taniysanmi? — deb so'rashsa, u:

— Ha, taniyman, — deb javob beribdi.

— Amir al-mo'minin nechanchi xalifa edi? — deb so'rashsa, u shundoq javob beribdi:

— Nechanchi xalifa ekanligini bilmayman. Ammo shuni bilamanki, Husayn uni Karbalo dasthida o'ldirgan edi.

* * *

Hajli' ochiqib, yutoqib bir qishloqqa kirib borgan ekan. Mundoq quloq so'lsa, bir uydan yig'i-sig'i tovushi eshitilibdi. Darrov o'sha eshikka yetib boribdi-da: «Shukrona» bersalar, men bu o'likni shu zahotiy oq tiritiraman», debdi. O'likning qavm-qarindoshlari darrov bu odamga xayr-sadaqa berishibdi, oldiga ovqat keltirib qo'yishibdi. Hajli qorni to'ygandan keyin:

— Bu o'likning kasbu kori nima edi? — deb so'rabdi.

— Hunarmand-kosib edi, — deb javob berishibdi.

— Hay attang! — debdi Hajli, — boshqa kasb-hunar egasi bo'lganda shu onday oq tiritirar edim, ammo kosib o'ldimi, tamom, uni qayta tiritirib bo'lmaydi.

* * *

Badbashara bir savdogar oynada o'z aksini ko'rib:

— Xudoyim, shunchalik bino qo'yib yasaganingga ming qatla shukur, — deb o'tirgan ekan, bu gapni uyni yig'ishtirayotgan xizmatkori eshitib qolibdi. Xizmatkor ishni bitqizib tashqariga chiqqanda allakim:

— Xo'jayining uyda nima qilib o'tiribdi? — desa, xizmatkor:

— Oynaga qarab xudoga yolg'on gaplarni so'zlab o'tiribdi, — debdi.

1 Afandiga o'xshash Eronning folklor qahramoni.

* * *

Birov shayxni mehromga taklif qilibdi-da, yonboshiga yostiqliq qo'yibdi. Yostiqliq ostida bir necha dinor pul turgan ekan, shayx sekin olib cho'ntagiga solibdi. Uy egasi yostiqliq ostiga qarabdi-yu, pul yo'qligini sezib fig'oni falakka chiqibdi.

— Biroddar, kimdan shubhang bo'lsa ayt, darrov undirib beraman, — debdi shayx.

— Boshqalarning olganiga gumon qilamanu, ammo sening olganingga imonim komil, — debdi uy egasi.

* * *

Bir arabga:

— Umring o'tib, qarib qolasan, hajga borib tavba qilib kelsang bo'lmaydimi? — deyishibdi. U esa:

— Hajga borgan pulim bo'lmasa nima qilay? — debdi.

— Uyingni sotib, yo'l xarji qilib qo'ya qolmaymanmi? — deyishibdi yana.

— Qaytib kelsam, qayerda yashayman? Qaytmasdan Ka'bada qolsam, xudo: «Ey axmoq, nega uyingni sotib, mening uyimda yashab yuribsan, demaydimi?» — debdi.

* * *

Bir yasovulga:

— Nega urushga bormading? — deyishsa, yasovul:

— Men dushmanlardan birontasini tanimasam, ular meni tanimasa, nega urishaman? — debdi.

* * *

Bir sodda kishi eshak sotib olmoqchi bo'lib bozorga borayotgan ekan, yo'lda birov uchrab:

— Yo'l bo'lsin? — deb so'rabdi.

— Eshak sotib olmoqchi bo'lib bozorga boryapman, — deb javob beribdi u.

— Inshoollo degin! — debdi haligi odam.

— Eshak bozorda, pul cho'ntagimda turibdi-yu, nega inshoollo derkanman? — debdi sodda odam.

36

Xaridor bozorga borishi bilan pulni kissavurga oldirib qo'yibdi va umidsizlanib uyiga qaytib kelayotganida yana o'sha odamga duch kelibdi. Haligi kishi:

— Qayerdan kelyapsan? — desa, u:

— Inshoollo bozordan kelyapman, inshoollo pulimni o'g'irlatdim, inshoollo eshak ololmay quppa-quruq qaytib kelyapman! — debdi.

* * *

Birov eshakka minib ketayotgan ekan, undan:

— Yo'l bo'lsin? — deb so'rashsa, u:

— Juma namoziga, — debdi.

— Hoy kallavaram, bugun seshanba-kul! — deyishsa, u yana:

— Agar bu eshak jumagacha meni machitga olib borsa, xudoga shukr qilaman, — debdi.

* * *

Bir arabni tulki tishlabdi. Tabibga olib borishibdi. Tabib:

«Nima tishladi?» — deb so'rasa, u tulki tishladi degani uyaliq: «It tishladi», — debdi.

Tabib malham tayyorlashga uringanda, haligi odam:

— Taqsir, tulki tishlaganda soladigan doridan ham jicheha soling, — debdi.

* * *

Birov to'n o'g'irlab bozorga olib borgan ekan, yo'lda o'g'irini qarqochi uribdi. Qaytib kelganidan keyin:

— To'nni qanchaga sotding? — deb so'rasalar, o'g'ir:

— O'z narxiga, — debdi.

* * *

Birov payg'ambarlik da'vo qilgan ekan, uni abbosiylar sulolasidan chiqqan xalifa Mo'tasim huzuriga olib borishibdi. Mo'tasim unga:

37

— Guvohlik beramanki, sen ahmoqlar payg'ambarisani! — desa, haligi odam:
— Albatta, ummatim senga o'xshagan odam bo'lgandan keyin ahmoq bo'lmay ilojim qancha! — debdi.

* * *

Abubakir degan odam har kecha o'g'rilikka chiqarkan. Bir kecha ovi baror topmadi va nochor sallasini o'rab qo'ltig'iga solibdi.

Uyga kelgandan keyin xotini:

— Nima topib kelding? — desa, u:

— Salla! — debdi.

— O'zingning sallang-ku?! — debdi xotini.

— Tovushingni chiqarma! Odamlar mening o'g'riligingga shubhalanmasin deb shu ishni qildim! — debdi.

* * *

Bir qazvinlik kattakon qalqonni ko'tarib jangga borgan ekan, bir tosh qal'adan kelib kallasigacha tegibdi-da, boshi yorilibdi. Achchig'i kelib:

— Xoy ablah, ko'zing ko'rmi! Shundoq kattakon qalqonni ko'rmasdan boshingga urasanmi? — debdi.

* * *

Bir qazvinlik o'ng oyog'ini uzangiga qo'yib, otga teskari minibdi.

— Nega otga teskari minding? — deyishsa, qazvinlik:

— Men teskari minganim yo'q, oting o'zi chapaqay — teskari, debdi.

* * *

Bir va'xon minbarga chiqib so'zlayotgan ekan, majlisda o'tirganlardan biri unga qarab qattiq yig'labdi, Va'xon majlis ahliga qarab:

— Birodalar, arzu ixlosni mana bu odamdan o'rganinglar. Mening so'zlarim ta'siridan ho'ng-ho'ng yig'lab o'tiribdi, — debdi.

Bu so'zni eshitib, haligi yig'lagan odam o'midan turib shundoq debdi:

— Mavlono, men mima haqida gapirayotgamingizni bilmadim, ammo bir echkim bor edi, soqoli aynan sizning soqolingizga o'xshardi. Har gal siz soqolingizni qumirlatganingizda o'sha echkim esimga tushib yig'layapman.

* * *

Bir chol tabibning oldiga borib:

— Uchta xotinim bor. Men sho'rikning kechayu kunduz belim og'riydi, biror dori ber, — deb iltimos qilsa, tabib:

— Buning davosi faqat uch taloq! — debdi.

Nomurod (*murodiga yetmagan odam*) — ilm-ma'rifat yo'lga o'zini qurbon qilgan odam.

Mudarris — o'sha nomurodlarning peshvosi.

Sho'rpehona — ilmga amal qilmagan mulla.

Ta'tilxona — madrasa.

Halokat keltiruvchi — vaqf qilingan mol (diniy muassasalarga xat-muhr qilib beriladigan amlok).

Mutavalli — vaqf qilingan yerning hammoli.

Nafaqa, moyana, iona — xalqqa borib yetmasdan o'lda-jo'lda qolib ketadigan narsa.

Barot — odamlarni laqillatadigan bir parcha qog'oz.

Fishor — ijrosi yo'q hukmnomasi.

Ikkinchi bob

TURKLAR VA ULARNING HAMTOVOQLARI HAQIDA'

Ya'juju Ma'juj — viloyatlarga bostirib kirgan turk to'dalari.

Azobunor (*jahannam azobi*) — turklarning olg'a qarab qilgan harakati.

Qahatchilik — ularning poyqadami yetgan joy.

Musodara va taqsimlash — turklar dastmoyasi.

Talosh — ularning san'ati.

Zilzila soati — turklarning bostirib kirgan vaqti.

Munkar-nakir — eshikning ikki tomonida turgan balxo'r turklar.

Qabul akbar (*katta it*) — shahar mirshabxonasining boshlig'i.

G'oratgar — elchi.

Zaqqum — turklarning yemishi.

Hamim (*do'zaxning suvi*) — turklarning sharobi.

Tag'oful (*g'afiatda qolish*) — qo'qqisdan kelgan balo.

Noinson — vaqf bo'lgan yerlarning hokimi.

Vojibul qatl (*qatl qilinishi vojib bo'lgan kishi*) — shahar o'lponchisi.

¹ Mo'g'ul bosqinchilari ko'zda tutilgan.

O'N FASL RISOLASI

... Donishmandlarning fikricha, iste'dod egalari yozuvchizuv bilan shug'ullanmay ilojlari yo'q. Garchi donolar bu haqda ko'p narsalar yozgan bo'lsalar-da, kamina, farzandlarim va yaqinlarimni to'g'ri yo'lga yo'llash niyatida quyidagi «O'n fasl» risolani tuzdim. Xat-savodi chiqqan har bir kimsa bu risolani huzur qilib o'qir, degan umiddaman.

Birinchi bob

DUNYO VA UNDAGI NARSALAR HAQIDA

Dunyo — hech qanday mavjudot yorug' kun ko'rmaydigan joy.

Oqil — dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydigan kishi.

Komil (*kam-ko'stsiz kishi*) — qayg'uga ham, shodlikka ham parvo qilmaydigan odam.

Karim (*saxiy*) — bironing moliga ham, martabasiga ham hasad ko'zi bilan qaramaydigan odam.

Mard — ikkiyuzlamachilikni bilmaydigan odam.

Fikr — dardisar.

Donishmand — tirikchiligini o'tkazishga aqli yetmaydigan odam.

Johil — oshig'i olchi odam.

Olim — faqir.

Saxiy — darvish.

Musharraf (*sharaftli kishi*) — o'g'ri, muttaham.

Bo'ri — askar.

Bayyo (*so'lish vaqtida narsalarga narx qo'yadigan odam*) — kissavur, o'g'ri.

Mo'htasib — do'zaxi.

Asas (*mirshab*) — kechasi qarochilik qilib, kunduzi bozordagilarning cho'ntagini shiladigan odam.

G'ammoz (*chaqimchi*) — devonxona mirzosi...

Uchinchi bob

QOZI VA UNGA TAALLUQLI ODAMLAR HAQIDA

Qozi — hamma nafratlanadigan odam.

Titilgan paxta — qozining sallasi.

Qozining noibi — imoni yo'q odam.

Vakil — haqni nohaqqa chiqaradigan odam.

Adl — hech qachon rost gapirmaydigan odam.

Vositachi — Xudo ham, banda ham qarg'aydigan odam.

Qozixonaning maslahatchilari — guvohlikni oldindan sotadigan shaxslar.

Saqich — qozining ijrochisi.

Shumshuk — qozining qavm-qarindoshlari.

Zartalab (*oltintalab*) — qozining hamtovoqlari.

Bihisht — qozilarga nasib bo'lmaydigan joy.

Halol — qozilar iste'mol qilmaydigan narsa.

Vaqf va yetimlarning moli — qozilar uchun halol hisoblangan narsa.

Qozining ko'zi — hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydigan idish.

O'txona — qozixona.

Pora — bechoralarning mushkulini oson qiladigan narsa.

Said (*baxtli kishi*) — qoziga ishi tushmagan odam.

Xatib — eshak.

Va'xon — o'z so'ziga o'zi amal qilmaydigan odam.

Nadim (*amir va yo sultonlarning hamsuhbati*) — laqubhardor.

Tulki — amir va xonlarga yugurdaklik qiladigan mavlonobashara la'natilar.

Shoir — tamagir, o'ziga bino qo'ygan kishi.

To'rtinchi bob

SHAYXLAR VA ULARNING HAMTOVOQLARI HAQIDA

Shayx — iblis.

Arzanda — shayxning o'g'li.

Makkorlik — shayxlarning bu dunyo haqida so'zlaydigan so'zlari.

Vasvasa — shayxlarning oxirat haqida gapiradigan gaplari.

Tuturiqsiz, ma'nosiz gap — shayxlarning ilm-ma'rifat haqida so'zlaydigan so'zlari.

Alaklash — shayxlarning tushi va uning ta'biri.

Shaytonlar — shayxlarning muridlari.

So'fi — tekinxo'r.

Hoji — Ka'bani o'rtaga qo'yib yolg'onga qasam ichadigan odam.

Beshinchi bob

XO'JALAR VA ULARNING ODATLARI HAQIDA

Maqtanchoqlik va surbetlik — xo'jalar dast-moyasi.

Hechupuch — xo'jalar vujudi.

Ma'nosiz va burdsiz — xo'jalar so'zi.

Malomat, hasosat, hasad — xo'jalar axloqi.

Ablah — xo'jalardan xayrli ish kutgan odam.

Sho'rpehona va badbaxt — xo'jalarning yugurdagi.

G'arbning anqosi — adlu insof.

Makkorlik, aldash, zo'ravonlik va jan-jal — xo'jalarning odati.

Hasadxo'rlik — oqsuyaklarning kasali.

Oltinchi bob

HUNARMANDLAR VA TURFA KASB EGALARI HAQIDA

Do'kondor — Xudodan qo'rqmaydigan odam.
Bazzoz — kallakesar.
Sarrof — chakana o'g'ri.
Imom — namozfurush.
Attor — hammani dardga yo'liqishini istaydigan odam.
Qallob — zargar.
Tabib — jallod.
Qazzob (*yolg'onchi*) — munajjim, ilmi nujum bilan shug'ullanadigan odam.
Kurashchi — tanbal, yalqov.
Dallo — bozorning haromxo'ri.
Qazvinlik¹ — yarim shaharlik, yarim qishloqlik.
To'ng'iz — qazvinliklarning raisi.
Ayiq — qazvinliklarning ulug'i.
Cho'qmoq, kaltak — qazvinliklarning nasibasi.
Yuzdan bir — ekinni to'qson-to'qqiz foizini boy bergan dehqon.
Shikoyat — mulkdorga yuboritadigan narsa — ya'ni rishvat, pora.

Yettinchi bob

SHAROB VA UNGA TAALLUQLI NARSALAR HAQIDA

Sharob — janjal xamirturushi.
Nard, ma'shuqa, chang — mastlarning suhatini gullatadigan narsalar.
Sho'rbo va kabob — mastlarning yemishi.
Maysazor va marg'izor — mastlarning o'tiradigan joyi.
Hajarul asvad (*qora tosh*) — ularning qozoni.

¹ Qazvin — Eronning janubi g'arbida joylashgan shaharcha. Fors folk-
leatida qazvinlik g'irvonlik deganday gap.

Zahar — ertalab ichiladigan sharob.
Beg'am — mast kishi.

Erki o'z qo'lidagi odam — sarxush.
Ojiz, notavon — sharobning xumori tutgan odam.
Azroil — soqoli to'rvaday soqiy.
Qirov — mastlar orasida o'tirgan hushyor.
Masxara — hushyorlar orasida o'tirgan mast.
Do'zax — g'alaba majlisi.
Havoyi va'da — mastlikda hadya etib, hushyor bo'lgandan keyin qorasini ko'rsatmaydigan narsa.
Abo'al-ya's (*noumidlikning otasi*) — ramazon.
Laylatul qadr — hayit kechasi.
Nahs — raqibning aftu basharasi.

Sakkizinchi bob

BANG VA UNGA ALOQADOR NARSALAR HAQIDA

Bang — so'filarni hayajonga soladigan narsa.
Shohmot — banglar dastmoyasi.
Childirma va tor — banglar sozi.
Xilvat — banglar manzili.
Oshi hadis, palov, shirinlik — bangilar yemi-
shi.

Ikki tomonlama Xudoning qarg'ishiga uchragan — bang bilan sharobni birga ichgan odam.

To'qqizinchi bob

UYLANGANLAR VA ULARGA ALOQADOR NARSALAR HAQIDA

Bo'ydoq — bu dunyoning ishlariga kuladigan odam.
Dev — qo'shmachi.
Zulqarnayn (*ikki shoxli*) — qo'sh xotinli odam.
Baxti qora — ko'p xotinli odam.
Zoye o'tgan umr — uylangan odamning umri.
Talon-toroj — uylangan kishining moli.

Parishon — uylanganing xotiri.
T'alx, achchiq — uylanganing ayshi.
Motamsaro — uylanganing uyi, ro'zg'ori.
Badbaxt — qari xotinga uylangan yigit.
Da'yus — yosh xotin olgan chol.
Ishq — bekorehilarning ishi.
Belning darmoni — kumush va oltin.
Halokatga itaruvchi narsa — ehtiyoj va yetishmovchilik.
Tadbirsiz odam — xarji daromadidan ortiq bo'lgan kishi.

O'ninchi bob

ERKAK VA AYOLLARNING ASL MOHIYATI HAQIDA

Al-xotun — jazmani haddan ortiq ayol.
Al-kadbonu (*uy bekasi*) — jazmani kamroq bo'lgan ayol.
Al-mastur (*iffatli ayol*) — bitta oshiqqa qanoat qiladigan ayol.
Al-soqol — mutafakkirlarning dastmoyasi...

O'SHA DAVR LUG'ATLARIGA PARODIYA

Al-xudo — har kim o'z tomoniga tortadigan dasturxon.
Al-rasul — dushmanlarning xayrxohi.
Al-farishta — maxfiy gap tashuvchi odam.
Al-podshoh — o'z so'zi ustidan chiqadigan odam.
Al-vazir — hamma la'nat o'qiydigan odam.
Al-mansabdor — hammaning g'azabiga giriftor bo'lgan odam.
Al-muovin — hamma narsadan o'zini bexabar tutadigan odam.
Al-boshliq — supurgining ipi.
Al-mufti — din-diyonatsiz odam.
Al-mutavalli — o'lganlarning ro'yxatini oqqa ko'chiradigan odam.

Al-vakil — o'zini jonkuyar qilib ko'rsatadigan odam.
Al-maxsumzoda — bobosining nomini sotib yuradigan odam.

Uyi kuygan — nozikta b'xotinga er bo'lgan odam.
Al-mujovir (*qo'shni*) — xira pashsha.
Adolatli amir — pallasiz tarozi.
Al-badmuomala (*sassiq gap*) — qozining oshnasi.
Al-imom — hammadan oldin uchadigan turna.
Al-go'shanishin (*uzlatga chekinish*) — tekinxo'r.
Al-bahodir — o'lim qidiradigan odam.
Al-tabib — o'lim darakchisi.
Al-bemor — hakimlar mashq qiladigan taxta.
La'nat va azobga giriftor bo'lish — ikki marotaba hajga borib kelgan odam.
Muazzin (*azon aytuvchi*) — uyquning dushmani.
Al-mullazoda — arzonga kitob sotadigan odam.
Al-avlod — ko'ngilga taskin va jonga ozor beradigan odamlar.

Al-ajoyib — namoz o'qiydigan qalandar.
Al-dardisar — hamisha ikki bukilib salom beruvchi chilar.
Al-bemaza — ortiqcha xushomadgo'ylik qiluvchi odam.

Al-shoir — so'z o'g'risi.
Al-ko'knori — tirk murda.
Al-muallim — hurmatli fosiq.
Al-hamshahar — hamshaharliklar kamchiligini fosh etuvchi odam.
Al-begim — fisqu fasoddan iborat ishlarini xaspo'shlab yuradigan odam.
Al-rishvat — qozi sallasining ichiga tiqib yuradigan narsa.

Al-dunyodor — tepadigan eshak.
Al-shayton — ersiz xotin.
Al-rasmurum — xonavayronlik.
Al-mardud — uch kundan ortiq turgan mehmon.
Al-murtad — singlisiga mute bo'lib qolgan aka.

Al-malul — qiziga mute bo'lib qolgan ota.
 Al-betiqora — qarzdor.
 Xudoning g'azabiga uchrash — xalq nazariidan qolish.
 Alimon — cho'ntakdagi naqd pul.
 Al-fotiha — tilanchilik vositasi.
 Al-bismillo — qorning to'q bo'lsa yemagin, degan gap.
 Assalomu alaykum — turing, ta'zim qiling, degan gap.
 Al-ramazon — bihishning umidida do'zaxga tushish.
 Al-tavba — yo'ldan ozganlarning suyanchig'i.
 Davlatmand kishi — ishtahasi yo'q odam.
 Yaxshi odam — ishing tushmagan kishi.
 Savdogar — o'zi safarda ovora, xotini uyda begonaga mohpora.
 Al-rostg'o'y (*haq gapni gapiradigan odam*) — hammaning dushmani.
 Azroil — qozi va uning yaqinlari.
 Al-zo'hd (*tarkii dunyo qilish*) — yalqovlikni xaspo'sh-lash degan gap.
 Al-dog'dor — o'g'li tufayli nom chiqazgan ota.
 Al-muhabbat — majnunlikning ibtidosi.
 Al-ishq — majnunlikning intihosi.
 Al-shum — xizmatkoridan tortib hamma undan norozi bo'lgan odam.
 Al-din — qadimdan qolgan bir taqlid.
 Al-qasam — yolg'onchilarning nonxurushi.
 Alxayyot (*mashinchi*) — kiyimni andazaga qarab tikmaydigan odam.
 Tavqi la'nat — kechayu kunduz uydan ketmaydigan kuyov.
 Al-mullo — maktab bolalarining jonini oladigan Azroil.
 Al-to'q — yeb bo'lmaydigan narsa.
 Al-xayr — ko'rib bo'lmaydigan narsa.
 Al-tomoshaxona — mastlarning suhbatlari.

Bayt-ul-lutf (*lutf maskani*) — ulamolarning dars majlisi.

Kibrli kishi — davlatmand kishi.

Al-nasya — hech qachon qaytib kelmaydigan naqdina.

Al-uyyqu — kambag'allarning ayshi.

Al-do'st — biz ezgu umid bog'lagan odam.

Al-voris (*meroxso'y*) — tasalli beruvchilar.

Al-shabnam — tum ko'zining yoshi.

Al-ko'z — ko'ngil eshigi.

Laylak — qish bilan xayrlashish vidonomasi.

Al-nodir — ko'ngildagi gaplarni topib gapiradigan xotin.

O'GITLAR

Fikru mulohazali va fahmu farosatli zotlarning fikricha, bu satrlarning muallifi Ubayd Zokoni, garchi katta ma'lumot va iste'dod bo'lmasa-da, yoshligidan kitob o'qish, ulamo va fuzalolarning so'zlarini mutolaa qilishda astoydil bel bog'lab, hijriy tarixning 750 siga yetganda (1349 milodiy) hukamolar sultoni bo'lmish Aflotunning o'z shogirdi Arastu uchun yozgan (bu asarni tengu timsoli yo'q Xo'ja Nosiriddin Tusiy yunon tilidan fors tiliga tarjima qilgan edi) asarini mutolaa qilishga muvaffaq bo'ldi... Mazkur asarning mutolaasidan so'ng aynan shu taxtirda bir nima yozish havasi tug'ildi va natijada mazkur «Pandnoma» paydo bo'ldi...

Har xil munofiqlik va takallufdan xoli bo'lmish bu «Pand-noma»ning xaloyiq orasiga yoyilishiga va shu bahona bilan muallif hukamolar orasidan o'z o'rnini topish va bu risoladagi pand-nasihah hammaga ma'qul kelishiga umid qiladi...

- Azizlar, hayotdan oladiganingizni olinglar!
- Fursatni qo'ldan bermanglar!
- Bugungi ayshingizni ertaga qo'ymanglar!
- Yaxshi kunni yomon kunga almashirmang!
- Tan sog'lik, xotirjamlikni podsholikdan afzal ko'ring!
- Vaqtni g'animat biling, chunki odam bir marotaba yashaydi!
- Aslu nasabini unutgan odamga kimligingizni eslatib qo'ying!
- Takabbur kishilarga salom bermang!

- Xastayu bemorlikda o'tgan vaqtni umr hisobiga qo'shmang!
- Xushchaqchaq, xushfe'l, xushmuomala va qalandarsifat kishilarga bizdan salom deng!
- Odamlarning xayru ehsoniga tama qilmang, chunki o'shandagina siz ularning ustidan kula olishingiz mumkin!
- Podshohlar va ularga yaqin kishilarning atrofida o'ralashib yurmang, ular beradigan xayru ehsonni eshik og'alariga hadya qiling!
- Joningizni haqiqiy do'stlar joniga fido qiling!
- Yaxshilarning diydoriga boqish — ummi uzaytirishi, ko'zni o'tkirlashtirishi va ko'ngilni har xil g'ubordan pok etishini zinhor unutmang!
- Qoshini chimirib, qovog'ini solib, aftini burishirib, yolg'on ishlatib, surbetlik qilib yuradigan muttahamlarga la'nat o'qing!
- Lutfu marhamatni bilmaydigan ulug'lar va savdogarlarni kalaka qilish savob ekanligini unutmang!
- Qo'lingizdan kelsa haq gapni gapirmang, aks holda odamlarning ko'ngilini og'ritib, sababsiz ranjib qo'yishingiz mumkin.
- Masxarabozlik, dallolik, childirimachilik, nozu ishva, yolg'onga guvohlik berish, dinu diyonatni sotishni o'rganing. O'shandagina sizning qurbingiz amaldorlar oldida oshadi va hayotdan bahramand bo'lasiz!
- Yo'ldan ozib do'zaxga tushmayin desangiz shayxlarning so'ziga ishonmang!
- Tinch va osoyishta yashashni istasangiz iffatli rindlarga ta'zim eting!
- O'z istagimcha yashayman desangiz zohidlarga qo'shni bo'lmang!
- Tovushi xunuk muazzinlar bosh og'riq qilmasin desangiz minorali ko'chadan uy olmang.
- Bangilar, nashavandlarni qandu qurs va halvo bilan siylang!
- Sarxushlarga lufu marhamat qiling!
- Ko'zingiz yumilguncha, merosxo'rning hisobidan hayotingizni yaxshi o'tkazishga harakat qiling!

- Ma'shuqangizning eshigini birovlariga ko'rsatmang!
 - Kunduzi qayg'u, kechasi fikru xayol ummoniga g'arq bo'lmayin desangiz da'yuslikdan or qilmang!
 - Obro'yim to'kilmasin desangiz, ramazon oyida odamlarning oldida sharob ichmang!
 - Ichak kasalligi va boshqa xastaliklarga giriftor bo'lmayin desangiz, haqgo'ylikka va vafodorlikda mubolag'a qilmang!
 - Ertalabki sharob va bangdan hazar qilmasangiz oshig'ingiz doim olchi bo'ladi, chunki fisqu fujurning sharofati zo'r!
 - Sharobxon, qimorxon va mashhoqlarning bazmida mardligingizni oshkor qilmang, aks holda turli baloga balogardon bo'lib qolishingiz mumkin.
 - Turarjoyingizni gadoybachcha, qulbachcha va qishloqiga bilintirmang!
 - Urug'-aymog'ning minnati, xasislarning dasturxon, amaldorlarning peshona tinishtirishi, uydagilarning murosasizligi va qarz beruvchilarning qistovidan ehtiyot bo'ling.
 - Qanday bo'lmasin, o'linga ro'baro' kela ko'rmang, chunki qadimdan o'lim hammaning nafratini keltirgan.
 - Zarurat bo'lmasa, o'zingizni tomdan tashlamang, aks holda bekordan-bekorga bo'yingiz uzilishi mumkin.
 - Hazilni ko'nglingizga qattiq olmang va hazilkashlarga yomon ko'z bilan qaramang!
 - Bu so'zlarni qulog'ingizda mahkam tuting, chunki bu ulug'larning so'zidir va unga zinhor amal qiling!
- Mana, iste'dod egalari bahramand bo'lishi uchun biz hukamo va ulamolardan eshitgan, bizgacha yetib kelgan, kitoblarda o'qigan va ulug'larda mushohada qilingan narsalarning hammasini shu kichkina risolada bayon qildik.

Baxtiyor totgay nasihat qandin,

Fahm aylar darvishlar ulug'lar pandin.

byssli qonchaS
tasfiyodid o'zbekiston
3000

IBK 84/2/102

07010000000000000000

Adabiy-badiiy nashr

Ubayd Zokoniy

DILKUSHO HIKOYATLARDAN

Muharrir Z. Hakimova

Tex. muharrir T. Xaritonova

Badiiy muharrir R. Zufarov

Musahhih Sh. Oripova

Komputerda tayyorlovchi G. Qulnazarova

Bosishga ruxsat etildi 03.03.09. Qog'oz bichimi 84x108/³²
«Tayms» garniturada ofset usulida bosildi. Shartli b.t. 2,94.
Nashr t. 2,51. Adadi 3000. Bahosi shartnoma asosida.
Buyurtma № 08-252

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

10000

Zokoni, Ubayd.
Z14 **Dilkusho hikoyatlar / Ubayd Zokoni.** —T.:
O'zbekiston, 2009. —56 b.

ISBN 978-9943-01-379-7

BBK 84(SFors)